



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCE.UZ

30 APRIL
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25 -ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Kutlimuratova Manzura Kuranbayevna	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPISHMOQLARDAN FOOYDALANISH	7
2. Iskandarova Oydin Shavkatovna	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLAR VA TEXNIK VOSITALARNING AHAMIYATI	9
3. Jumaboyeva Zuhra Komiljonovna	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN VA MOHIYATI	11
4. Kariyev Mansur Omongeldiyivich, Atajonova Dilnoza Azod qizi	
GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	13
5. Ruzmetova Manzura Ro'zmamatovna	
GEOGRAFIYA O'QITISHDA O'QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATUVCHI OMILLAR	15



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPISHMOQLARDAN FOOYDALANISH

Kutlimuratova Manzura Kuranbayevna
Xorazm viloyati, Yangibozor tumani
13-umumi o'rta ta'lim maktabi
Geografiya fani o'qituvchisi
Telefon: 99 3833582

Annotatsiya: Maqolada geografiya darslarida topishmoqlardan foydalanish va uning samaradorligi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, topishmoq, maqsad, metodika, mahorat.

Dars – ta'limning asosiy shaklidir. Darsni mazmunan va shaklan takomillashtirish, bu didaktikaning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Faqatgina darsda emas, darsdan tashqari, ya'ni sinfdan tashqari ishlarda noan'anaviy interfaol usullarni qo'llab sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish, uni yuqori pog'onaga ko'tarish o'quvchilarda shu fanni o'rganishga bo'lgan havaslarini orttirish lozim.

Geografiya darslarini va sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh masaladir. Darsda o'yinlardan foydalanish muhim o'rinni egallaydi. Shu o'rinda geografik topishmoqlarni darslarga olib kirish ko'zlangan maqsadga erishishda benihoyat katta yordam beradi. Sababi, topishmoqlar katta so'z o'yini assosida vujudga keladi. Bu qadimiy geografik o'zin ham katta badiiy mahoratni va topqirlikni talab etadi. Topishmoqlar xalq ijodiga obrazli so'zga muhabbat uyg'otadi. Bolalarga estetik zavq bag'ishlab, ularni she'riyat dunyosiga olib kiradi. San'atning o'ziga xos bo'lmish bu she'rlar o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy ehtiyojlariga ozuqa bo'ladi. Ezgulikka chorlab, inson uchun eng aziz bo'lgan ona tiliga, tug'ilgan yurtiga muhabbat uyg'otadi. Shuningdek, topishmoqlar darslarda olingan bilimlarni mustahkamlashga, fikrlashga o'rgatib, fanga qiziqishini orttiradi.

«Geografik topishmoqlar» asosida tashkil etilgan dars o'quvchilar ongini, tafakkur qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Sababi, o'quvchi har bir topishmoqlar mos javobni topishdan oldin mazkur jumboqla taaluqli o'zi bilan barcha ma'lumotlarni esga olishi, geografik kartalarni tasavvur qilishi, materiklar, davlatlar tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlarni esda saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Topishmoqlar hozirjavoblik bilan topgan o'quvchi o'z bilimiga ishonch hislarini shakllantiradi, javob esa keyingi egallanajak bilimlariga kuch baxshida etadi. Bunda o'quvchini fikrlashga, o'qituvchining har bir so'ziga e'tibor berishga, o'z fikrini ilmiy asoslab bayon etishga o'rgatishdan iborat.

«Geografik topishmoqlar» darsning boshlanishida o'quvchi diqqatini jalb etish va o'tgan mavzular bo'yicha bilimini sinashga dars so'ngida esa yangi materialni qay darajada qabul qilganligini bilish va o'quvchilarga ijodiy dam berish maqsadida foydalaniladi.

Topishmoqlar o'zbek va jahon xalqlarining qadimgi xalq og'zaki ijodlaridan biri hisoblanadi. Ulardan assosan, tabiatning turli hodisalari, jismlari, ishora orqali juda aniq tasvirlanadi. Bu topishmoqlar o'z o'rnida barchani qiziqtiradi va topqirlilikka undaydi. Topishmoqlardan darsda samarali foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini zukko va fikrlash tezligini, topqirligini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida ruhiy charchashni oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarni ichki dunyosini o'rganishga, ularni individual xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Geografik atama, hodisa, joy nomlari va boshqalarni topishmoq asosida bayon etilishi o'quvchilarni unga mos javobni topish uchun bilgan barcha ma'lumotlarni eslashga, geografik kartalarni tasavvur qilish, materiklar, davlatlar rayonlari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni yodda saqlashga o'rgatadi. Bunday topishmoqlarga misol keltirsak:



To'rt tomoning aniqlab berur,
Darajada joylar aks etar.
Osmonda, suvda, o'rmonda,
Sayohating chog'i asqotar. (Kompas)

Unga o'simliklar yuzini burar,
Qumursqalar inin og'zin qurar,
«Avstraliya» - so'zi unga taqlalar,
Bu tomonning nomi qanday atalar? (Janub)

Yer yuzida shunday nuqta bor,
Kecha-kunduz farqlanmas unda.
Yulduz ham so'nmaydi zinhor,
Charaqlaydi kunda va tunda. (Shimoliy qutb)

Xaritamas, miqyosi bor,
Unda joyning rejasi bor.
Aniqrog'i globusdan,
Belgilarning o'z o'rni bor. (Joy plani)

Shu kabi topishmoqlar tabiiy geografiya kursida darslarni o'tishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir topishmoqni o'tiladigan dars mavzusiga moslab o'tilsa, dars yanada samaraliroq va qiziqarliroq bo'ladi. Shu kabi topishmoqlardan darsda foydalanib mavzular yoriltsa, bolalarni topqirlilik, zukkolik, chaqqonlik va ularni mantiqan o'ylab so'ng so'yashga o'rgatadi. Bu kabi topishmoqlar mavzuni yaxshi tushuntiribgina qolmasdan, geografiyanı boshqa sirlarini ham bilib olishga yordam beradi. Shu kabi topishmoqlar o'quvchilarni topqirlikka, chaqqonlikka ziyraklikka undaydi va xotira tezligini sinaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda hoan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. -T.: Yangi asr avlod. 2018. - 76 b.
2. Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini matabda o'rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2016.-254b.



GEOGRAFIYA DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLAR VA TEXNIK VOSITALARNING AHAMIYATI

Iskandarova Oydin Shavkatovna

Xorazm viloyati Xonqa tumani

33-sen umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografiya darslarida turli xil ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanishning qulayliklari va afzalliklari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, geografik obyekt, ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar, ta'lif texnologiyalari, axborot texnologiyalari, bilim, fikr.

Jamiyatda insonlarining, xususan maktab o'quchilarining dunyo qarashiga ommaviy axborot vositalari katta ta'sir o'tkazadi. Radio, televedenie, matbuot, Internet bugungi kunda insonga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning o'ziga xos tizimini tashkil qiladi. Respublikamizda «Ta'lif to'g'risida», «Kadrlar taylorlash milliy dasturi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bajarish va uni hayotga tadbiq qilish asosida ta'lif-tarbiya ishlarini shunday ko'tarishimiz zarurki, u barcha yoshlarimizning chuqur va puxta bilim olishlarini, kerakli malaka va ko'nikmalarni hosil qilishlarini ta'minlay olsin. Bu borada davlat ta'lif standartlariga muvofiq ijodiy izlanish, o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, fanlarning yutuqlaridan foydalanish, ilg'or tajribani ko'lamli ravishda amalga oshirish va yanada samarali davom ettirish talab qilinadi. Bularning hammasini amalga oshirish uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'quv jarayonida turli xil bilim manbalaridan foydalaniladi. Geografiya fanini o'qitish dasturi bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialidan tashqari turli manbalardan ham foydalanish mumkin. Berilayotgan bilimlar o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va o'zlashtirishi uchun aniq bir pedagogik va metodik sharoitlar bo'lmog'i lozim. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarini bilish, o'zlashtirish va kundalik hayotda qo'llay olish jarayonini tashkil qilish lozim. O'quvchilar bilim faoliyatini tashkil qilishga quyidagilar kiradi: tinglash; aytilgan geografik ma'lumotlarni eslab qolish; o'rganilgan geografik ma'lumotlarni tasavvur qilish; xarita, atlas, globus ma'lumotlarni qiyoslay olish; kuzatish va h.k.

Bayon qilinayotgan o'quv materiallarini o'z ko'zi bilan ko'rish o'quvchilarda katta qiziqish hosil qiladi: ijodkorlik va faollikni oshiradi, darsni mazmunli qiladi. Texnika vositalari, ko'rsatmalilik yordamida tashkil etilgan har bir geografiya darsi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, geografik obyekt va hodisalarini bir – biri bilan taqqoslash, o'tilgan mavzuni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'quvchilarda tasviriy malaka shakllanadi. Ko'rish xotirasi, mo'ljal olish qobiliyati hamda obrazli tasavvurlar shu bilan birgalikda kombinatsiyalash xususiyatlarini rivojlantiradi. Texnik vositalar, ayniqsa, ovozli ekran vositalari o'quvchilarda geografik tasavvur hamda tushunchalarini qisqa vaqt ichida shakllantirishga imkon beradi. Bu vositalar geografik obektlar va hodisalarining o'ziga xos tomonlarini ochib berib, ularning o'ziga xosligini o'quvchilarga tushunarli tarzda ko'rsatilishini hamda ta'larning ilmiyligi, tushunarligi ta'minlaydi.

Texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning geografik bilim doirasini kengaytiradi, tabiat hodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, rivojlanish qonuniyatlarini chucherroq ochib beradi. Tabiatda juda tez yuz beradigan yoki aksincha vaqt bo'yicha juda cho'zilgan turli tabiat hodisalari va jarayonlarini namoyish qila oladi. Masalan, 5-sinflarda yerning ichki tuzilishi, okean chuqurligi, atmosferaning yuqori qatlamlari mavzularini texnik vositalar yordamida ko'rsatish o'quvchilarda yerning paydo bo'lishi haqidagi tasavvurlarini rivojlantiradi va ushbu mavzularni oson tushunib o'zlashtirish imkonini beradi. Texnik vositalar orqali berilayotgan ma'lumotlar yordamida o'quvchilar meteorologik stansiyalarda, turli tabiat zonalarida va respublikamizning iqtisodiy – geografik rayonlari va dunyo mamlakatlarida bo'lishni tasavvur qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini turmush, xalq xo'jaligi, ijtimoiy – siyosiy hayotning hozirgi masalalari va xalqaro yangiliklar bilan bog'lay oladilar. Kasblar haqidagi tasavvurlari rivojlanadi. Vatanimizning tabiiy boyliklari, turli – tuman tabiat manzaralari o'quvchilarda faxrlanish, iftixor, milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otadi.



Geografiya fanini o'qitishda darslarni hozirgi kun voqealari bilan bog'lab olib borish talab qilinadi. Ayniqsa, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida IX sinflarda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" xalq xo'jaligining tarmoqlariga tavsif berishda, mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy o'rniغا baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq xo'jaligida xalqaro hayotda yuz berayotgan kundalik o'zgarishlar ta'lim jarayonida, kunlik matbuot materiallari bilan bog'liqlikda foydalanib borilsa, o'quvchilar so'nggi voqealar to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bo'lishadi. Geografiya darslarida texnik vositalardan o'z o'rniда foydalanilsa, geografiya kursini o'qitishda quyidagi didaktik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga imkoniyat bo'ladi. Texnik vositalardan foydalanish o'qituvchining mehnatini yengillashtiradi, sinflar kesimida murakkablashib borayotgan geografik bilimlarni o'quvchilarga ancha qisqa muddatda yetkazish imkonini yaratadi. Ta'limning samaradorligi oshadi, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish uchun sarflangan vaqt qisqaradi va darsda ta'limning boshqa metodlaridan foydalanishga, o'quvchilar bilan individual ishslashga qulay sharoit yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, geografiya darslarida turli xil ko'rgazmali qurollar, ta'limning texnik vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Agar o'quvchi bilim olishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog'lom hamda teran fikrlar, qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilim olish jarayonida muvaffaqiyatlarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Qurbaniyazov Geografiya o'qitish metodikasi.
2. N.N.Azizzxo'jaeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
3. R.Qurbaniyazov O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakl va metodlari.



GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Jumaboyeva Zuhra Komiljonovna

Urganch tuman 19- sonli umumiylar ta'lim
maktab geografiya fani o'qituvchisi
Telefon: + +998 99 385 85 52
aziz. @mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqlolada geografiya fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiya, texnologiya, nazariya, amaliyat, pedagogik tizimlar.

Ta'limni zamon bilan bog'lashni samarali usullaridan biri ta'limda erishilayotgan yutuqlarni o'quv jarayoniga singdirishdir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun yoshlarning bilim olish darajasini yaxshilashda geografiya darslarida qo'llaniladigan geografik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanish bugungi kun geografiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk vaz ifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori geografiyaning ham o'rni kattadir. Chunki, geografiya yer yuzi tabiatini, aholisi va uning xo'jalik faoliyati haqidagi fandir. Bugungi kunga kelib, geografiyani tako millashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta'lim mazmunini va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti jamiyatimizning demokratlashuvi axborot miqyosining oshib borish i kabi omillar bolalarning shaxsiy xususiyatlari jumladan, idrok eta olish, tasavvur va tafakkurlash aqli y qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Bolalarning olamni biliшhga bo'lган ehtiyoji avvalgi yillarga nisbatan keskin oshganligi hech kimga sir emas. Ta'lim standartlari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlariga mos noan'anaviy

darslar hamda interfaol usullarning mohiyati darslarda interfaol muloqotni tashkil etish va rivojlantirish bugungi zamon talablaridan biri ekanligi ilmiy asoslanadi.

Geografik o'yinlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ushbu geografik o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida, o'quvchilarining geografiya faniga bo'lган havasini oshirishda qulay va samaral i vositalardan biri hisoblanadi.

"Munozara" o'yini. Munozara o'tkazish mavzusi aniq bo'lishi kerak. Geografiyadan "Orol dengizini saqlab qolish" muammosi tarixidan tanlangan muammo qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o'quvchilarga berilib, sinf o'quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a'zosi qo'yilgan muammolar haqida o'z fikrini bayon etish huquqiga ega. Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob vari antlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi. "Kim ko'p biladi" o'yini. Bu o'yinni geografiyaning xohlagan mavzusini o'rga nishda qo'llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhgaga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. "Xayoliy sayohat" o'yini. Ta'limning bu o'yini geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo'llanili shi mumkin. Tarixdan biror davrdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografiyadan biron-bir qishloq, materik, orol yoki davlat bo'ylab xayoliy sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi mustaqil o'sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi. "Pochta" o'yini. Bu geografik o'yinni barcha o'quv mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'qituvchi bir necha mavzuga mos konvert olib, uning ustiga eng zarur bo'lган asosiy yozuvlar yozibqo'yadi va ular stol atrofiga ko'zga ko'rinarli qilib joylashtiriladi. Masalan, deylik 6-sinf "Materiklar va okeanlar" geografiyasi kursida 6 ta konvert olinib, ostiga "Afrika", "Antarktida", "Avstraliya", "Janubiy Amerika", "Shimol iy Amerika", "Yevroosiyo" deb yoziladi.



Endi shu materiklardagi daryo, ko'l, shahar, davlat, tog' va tekislik nomlari yozilgan qog'ozchalar o'quvchilarga tarqatiladi va qaysi nom qaysi materikka mos kelsa, o'quvchi unio'sha konvertga solishi kerak. Kim savollarga ko'p va aniq javob topsa, o'sha yuqori ball oladi. Bunday u sulni boshqa fanlarda ham keng qo'llash mumkin."Tovush chiqarmasdan topish" o'yini.O'yinni boshlashdan avval o'quvchilarga o'yin qoidalari tushuntiriladi, o'yinda faol qatnashgan va shartlarini oldin bajargan o'quvchiga baho qo'yildi. O'yin mazmunini o'qituvchi geoekologik biron ob'ekt nomini aytadi.O'quvchi o'quv vositasidan shu ob'ektni geografik kartadan yoki atlasdan qidiradi. O'yining borishi: ob'ektni topgach o'quvchi o'ng qo'lini ko'taradi, o'qituvchiga o'zi topgan ob'ektni ko'rsatadi, o'quvchi qo'li bilan ob'ektni ushlab turmasligi kerak, chunki yonidagi bola undan ko'rib olishi va foydalanishi mumkin. Shuning uchun ob'ektni topgan o'quvchi joyning nomini yodida saqlashi zarur. O'qituvchi oldin topgan va qo'lini ko'targan o'quvchining oldiga borishi va tekshirib ko'rishi kerak. Boshqa o'quvchilar qanchalik bilib olganliklarini sinash uchun ulardan ham ob'ekt so'raladi. Ob'ektni topgan o'quvchi o'tirgandan so'ng o'qituvchi yangi ob'ekt nomini aytadi. "Kartadan topish" o'yini.Har bir sinfda olib borish mumkin darsning mazmuniga qarab o'yin geografik atlasning sahifalaridagi turli ob'ektlardan bo'ladi. O'yinni uslubi: O'qituvchi geografik ob'ektni aytadi. O'quvchilar topadi va izohlab beradi. O'quvchilar bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridan so'ng tez topadigan bo'ladi. O'quvchilar murakkablashtirib borib, shu topiladigan nomning geografik koordinatalarini aniqlash topshiriladi. Buning uchun shahar va qo'riqxonalarni tanlagan ma'qul. O'quvchilar topilgan joyning koordinatalarini daftarga yozib oladilar. Geografiya - darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni geografik o'yinlar egallaydi. Geografik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.

Kariyev Mansur Omongeldiyivich

Xorazm viloyati shovot tumani 44-sون umumiy
o'rta ta'lif maktab geografiya fani o'qituvchisi.

Email:mansur44@inbox.uz

Atajonova Dilnoza Azod qizi

Xorazm viloyati shovot tumani 14-сон umumiy
o'rta ta'lif maktab geografiya fani o'qituvchisi.

Email:dilnoza14maktab@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fani o'qitishda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularni o'quvchi yoshlarni bilim olishida qanday ahamiyatga ega haqida mulohazalar yuritiladi.

Geografiya inson sayyorasi sifatida yer haqida yaxlit tasavvur beruvchi yagona o'quv kursidir. U umumiy madaniyatni, shu jumladan atrof-muhitni shakllantiradi; barcha darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarurdir.U turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qanday qilib integratsiya qilishni, muayyan xalqaro aloqa tilidan - geografik xaritadan foydalanishni o'rgatadi. Geografik ta'lif-insoniyatning umumiy uyi sifatida o'z mamlakati va erlarining g'ayratli ustozini tarbiyalash uchun mustahkam asosdir. Zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligida birligini ongli ravishda anglaydigan bu ta'lif. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishda maktab o'quvchilarining zamonaviy ta'lif vositalariga ham katta ahamiyat beriladi. Hech kimga sir emaski, ta'lifning asosiy vositasi hali ham atlasli darslik bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, samarali o'qitish bir qator va boshqa ta'lif vositalaridan (dasturlar, uslubiy tavsiyalar, talabalar uchun ishchi daftarlari), ya'ni o'quv-uslubiy majmuadan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biroq, UMKDAN tashqari, boshqa ta'lif vositalari ham qo'llaniladi: audiovizual va ekran-tovush, shuningdek, turli xil interaktiv ta'lif vositalari (multimedia ensiklopediyalari va qo'llanmalari, moslashtirilgan dasturiy-uslubiy komplekslar va ularga yaqin elektron darsliklar, test dasturlari).

Har qanday yangi texnologiyani o'zlashtirish bilan o'qituvchining yangi pedagogik fikrashi boshlanadi: uslubiy tilning ravshanligi, tuzilishi, ravshanligi, metodikada asosli me'yorning paydo bo'lishi.Darslarda pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali men geografiya o'qitish jarayonini yangi nuqtadan yaxshiroq natijalarga erishish mumkinligiga ishonch hosil qildim.

Tadqiqot texnologiyalari.O'quvchilarini tadqiqot faoliyatining asoslarini o'rgatish.Muammoni o'rganish texnologiyasi.Muammoni hal qilish usullarini o'rgatish, muammoli vaziyatni hal qilish uchun o'z-o'zini tanlash uchun sharoit yaratish, o'z-o'zini anglash uchun sharoit yaratish.

Muammoli kampaniyani rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida kursning muammoli vazifalari tizimining vazifasini qo'ydim. Lekin bu erda men ta'lif muammolari tizimini qurishda turli yondashuvlar mavjudligini angladim (masalan, didaktik maqsadlarga qarab – yangi materiallarni o'rganish, tekshirish, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, ishlataligan mantiqiy operatsiyalar va h.k.) men uchun asos sifatida qabul qilish eng maqbuldir, birinchi navbatda, talabalarga ushbu fanning muammolari, ikkinchidan, ushbu fanning tadqiqot usullari qo'llaniladi.

Loyiha usuli.Haqiqiy bilimlarni integratsiyalashga emas, balki ularni qo'llash va yangi bilimlarni olishga qaratilgan pedagogik texnologiya.

Bunday modellarning eng muhimi – loyiha faoliyati. Geografiya darslarida loyiha faoliyatini qo'llash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

1.Darslarda mini loyihamalar. Bunday ish juda tez ishlataladi. To'qqizinchisinfida turli sohalarni o'rganishda bolalar turli korxonalar loyihamalarini, foydali qazilmalarni o'zlashtirish loyihamalarini yaratadilar. Bunday vazifalar iqtisodiyot tarmoqlarini o'rganishning butun davri uchun bolalarga beriladi. Mavzuni o'rganish oxirida bolalar har qanday sanoat korxonasining loyihasini taqdim etishlari va ushbu mavzuni o'rganish jarayonida olgan bilimlari asosida o'z rivojlanishlarini oqlashlari kerak.

2.Loyihamalar uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Misol uchun, 6 sinfida yil davomida bolalar gipotetik qit'aning modelini yaratadilar. Uning uchun har qanday tematik xaritalarni chizish, unga yangi mamlakatlar va shaharlarni kashf qilish, kashfiyot va tadqiqot tarixini yaratish.



Bunday loyihada ishslash butun o'quv yili davomida amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda bolalar kelajakdagi qit'aning xaritasi bilan belgilanadi. Uning geografik joylashuvi aniqlanadi, "geografik koordinatalar" mavzusini o'rganishda qit'aning ekstremal nuqtalarining koordinatalari aniqlanadi, qit'aning parallel va meridianlari o'rtasida joylashgan.

"Litosfera" mavzusini o'rganish jarayonida bolalar materikning jismoniy xaritasini chizishadi. Yer qobig'ining tuzilishi xaritalari va zilzila va vulkanizm zonalarining xaritalariga asoslanib, yordamning asosiy shakllarini bildiradi.

Mavzuni o'rganishda atmosfera, biz iqlim xaritasini chizamiz. Afsuski, 6 sinfida bolalar hali iqlim zonasini kabi narsalarni bilishmaydi va arning doimiy shamollari sxemasi bilan tanish emaslar, lekin ular xaritada qit'aning eng yoritilgan, eng issiq qismlarini mahalliy shamollarning ayrim turlarini belgilashga qodir.

Gidrosfera mavzusini o'rganayotganda, bolalar Daryo tizimlarini ifodalaydi, bu daryolarda qanday rejim va oziq-ovqat turini o'ylab, katta ko'llarni bildiradi, ular qanday kelib chiqishi haqida o'ylashadi.

Xuddi shunday, boshqa qit' alarming tabiiy zonalar bilan, talabalar o'z qit'asida tabiiy hududlarni joylashtiradilar. Shu bilan birga, ular bu tabiiy sharoitlarda qanday hayvonlar va o'simliklar mavjud bo'lishi mumkinligini kashf etadilar, tirik organizmlarda qanday moslashish usullarini hisobga olishadi.

"Yer aholisi" mavzusini o'rganishda bolalar "o'z" materiklarini joylashtiradilar. Shaharlar, mamlakatlar va xalqlar paydo bo'ladi. Bu mavzu odatda bolalar fantaziyasini sotib olish uchun beriladi. Bolalar milliy liboslar, uy-ro'zg'or buyumlari va an'analarning o'ziga xos xususiyatlariiga ega.

Foydalaniman adabiyotlar.

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "Shark" nashriyoti-matbaa konserni, 1997 yil.
2. Nurmonov A. Lingistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akadem nashr., 2010. – 112 bet.



GEOGRAFIYA O'QITISHDA O'QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGAUVCHI OMILLAR

Ruzmetova Manzura Ro'zmamatovna

Xonqa tuman 10-sonliumumi o'rta ta'lim

maktab geografiya fani o'qituvchisi

Tel : +998937579293

Annotatsiya: Mazkur maqlolada geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiya, texnologiya, nazariya, amaliyat, pedagogik tizimlar.

O'qitish jarayonida o'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etish o'ta muhim masalalardan biridir. Bunda bilish jarayonining o'zi o'quvchini kuzatish, uning mustaqil faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilmog'i lozim. Shaxs taraqqiyotini ta'minlovchi ta'lim jarayonini tashkil etish g'oyasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosini ifodalaydi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning o'ziga xosligini, pedagogik qo'llab-quvvatlash choralarini kirish bugun o'ta muhimdir.

O'quvchi

shaxsini axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligini muhofaza qilish, mustahkamlash har bir bolaning o'ziga xosligini saqlab qolish, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash uning taraqqiyot darajasiga muayyan talablar qo'yish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda unga rioya qilish muhimdir. Barcha o'quv fanlaridan ta'lim mazmunini gumanitarlashtirish bilan bog'liq bo'lган talablarni belgilab olishni taqozo qiladi. Ta'limning variativligi hamda o'quvchi shaxsiga umuminsoniy madaniyatni singdirishga erishish ham didaktikada muhim ahamiyatga ega bo'lган masalalardan biridir.

Pedagogik-psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda barcha o'quvchilar ta'lim olish jarayonida bilim olish layoqatiga ega ekanliklarining qay darajadalogini aniqlash lozim. Shundagina ular uchun yetarli pedagogik, didaktik, moddiy-texnik shart-sharoitlarni talab darajasida yaratish mumkin. Bu esa, ularda bilim, ko'nikma va malakalar darjasasi yuqori bo'lising asosiy omildir. Boshlang'ich sinflarda shaxsni shakllantirishi asosi bo'lган mustaqil tafakkurni rivojlantirish haqida gapirilganda, bevosita geografiyafanini o'qitishda ta'lim jarayonida o'quvchi fikrlarini uyg'otish, o'quv ishlariga faol qatnashishi uchun shart-sharoitlar yaratish, o'quvchidagi faollikni butun dars davomida ushlab turish, axloqiy-ma'naviy masalalarni hal etishda o'quvchi tafakkurini ma'lum maqsad sari yo'naltirish, uning aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, bolani mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga rag'batlantirish nazarda tutiladi.

Ma'lumki, tafakkur u yoki bu masala yechimini izlash, qandaydir savolga javob topish jarayonidir.

Geografiya darslarida o'quvchining o'z oldiga qo'ygan vazifani anglashi, o'qish maqsadini tushunishi o'qituvchi tomonidan dars maqsadini e'lon qilinishidan boshlanadi. Darsning maqsadi va o'quvchining oldiga qo'yilgan masala uni o'ziga tortadigan bo'lishi uchun uning muhimligiga o'quvchi o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib ishonishi kerak bo'ladi. Mustaqil fikrlash bilan birga darsda o'zining ma'lum bir ehtiyoji qondirilishini anglab etadi.

Shunda bilim olish jarayoni har bir bola uchun qiziqarli faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat, o'z navbatida bolalarning tafakkur jarayoni va uning mustaqilligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Qo'yilgan masala o'quvchining nazarida biror mazmun kasb etishi uchun bola shunday qiyinchiliklarga ro'baro' qilinishi kerakki, unda ayni masalani hal etishda zarur bo'ladigan yangi bilimlarni o'zgartirishga imkon yaratiladi.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000